



SOG‘LOM DINIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA TASAVVUF TA’LIMOTI NOMOYONDALARINING TARG‘IB ETGAN G‘OYALARI

Z.A.Xolmatova

Qo‘qon DPI

Maqolada sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, vositalari, nazariy va metodologik asoslari o‘rganilgan. Sharq xalqlariga xos bo‘lgan diniy dunyoqarashning yo‘nalishlari, asoslari, g‘oyalari, tamoyillari va ta’limotlari haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tasavvuf ta’limoti nomoyondalari va ular targ‘ib etgan g‘oyalarning ma’naviy va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Birinchi hamda ikkinchi Renessans davrida diniy dunyoqarashni rivojlanib borish jarayonlari *tahlil qilingan*.

Kalitso‘zlar: dunyoqarash, sog‘lom diniy dunyoqarash, shaxs kamoloti, nazariy bilish, din, tasavvuf ta’limoti, aqliy va hissiy bilish, islomiy asos, ezgu g‘oyalar, yaxshi amal.

В статье исследуются педагогические условия, средства, теоретические и методологические основы формирования и развития здорового религиозного мировоззрения. Даны сведения о направлениях, основах, идеях, принципах и учениях религиозного мировоззрения, характерных для народов Востока. Также были проанализированы духовно-педагогические возможности деятелей мистического учения и идей, которые они продвигали, которые имели важное значение для формирования здорового религиозного мировоззрения. Проанализированы процессы развития религиозного мировоззрения в период первого и второго Возрождения (Ренессанса)

Ключевые слова: мировоззрение, здоровое религиозное мировоззрение, созревание личности, теоретическое познание, религия, мистическое учение, умственное и эмоциональное познание, исламская основа, благородные идеи, добрые дела.

Keywords : worldview, healthy religious worldview, maturation of personality, theoretical knowledge, religion, mystical teaching, mental and emotional cognition, Islamic foundation, noble ideas, good deeds.

KIRISH

Sog‘lom diniy dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi bevosita nazariy bilish bilan bog‘liq. Tasavvuf ta’limoti namoyondalari bilish jarayonlari, uning muammolari, bilmning shaxs kamolotini ta’minlashdagi imkoniyatlari va chegaralari, uni tatbiq etish yo‘llari va usullarini ko‘rsatib berganlar. Sharq xalqlariga xos bo‘lgan

diniy dunyoqarashning asosini ikkita yo‘nalish tashkil etgan. Birinchisi, aqidaviy kalomga asoslangan ortodoksal (izchil) islomiy dunyoqarash, ikkinchisi aql imkoniyati va qudratidan kelib chiqadigan dunyoviy bilimga suyanadigan falsafiy dunyoqarash. Ikkinchi oqim hur fikrlilik manbai sifatida e’tirof etiladi va sog‘lom diniy dunyoqarashning asoslarini o‘zida mujassamlashtiradi. O‘sha davrda vujudga kelgan diniy dunyoqarash o‘zining rang-barang asoslariga ega bo‘lgan. Najmuddin Komilovning ta’biri bilan aytganda «...tasavvufdagi ontologiya, ya’ni olam haqidagi qarashlar ham irfoniy muhabbat tushunchasi bilan bog‘liq”[1, 247-b.].

Sog‘lom diniy dunyoqarashning konseptual asoslarini o‘z ichiga olgan tasavvufning ontologik asoslarida ong, qalb, ibodat haqidagi bilimlar muhim o‘rin tutadi. Sog‘lom diniy dunyoqarash namoyondalarining fikriga ko‘ra inson onginging mahsuli bo‘lgan haqiqiy bilim, qalbni ilohiylashtirish, botiniy ibodat va Allohga yaqinlashish vositasidir. Mazkur yondashuv pedagogika uchun muhim ahamiyatga ega. Yoshlar diniy va dunyoviy bilimlardan xabardor bo‘lishlari barobarida, ularning qalbi yumshab, ezgu amallarni bajarishga intiladilar. Shu tariqa Allohga yaqinlashib, o‘zlarining ma’naviy yuksalishlari uchun ibodat qiladilar.

Ilohiy-diniy dunyoqarashning asosini iroda kosmologik kategoriya, ya’ni borliq, mavjudot to‘g‘risidagi ta’limot tashkil etadi. Sog‘lom diniy dunyoqarash asosida insonlarda shaxsiy tasavvurlar hosil bo‘ladi. Tasavvurlar inson erishishi bo‘lgan eng yuqori natijalar hisoblanadi. Shuning uchun ham tasavvur insonda aql-idrokning rivojlanishi uchun eng zarur hodisa hisoblanadi. U shaxs dunyoqarashining asosini tashkil etadi.

MATERIAL VA USULLAR

Birinchi hamda ikkinchi Renessans davri ma’naviy madaniyati va ta’lim-tarbiya tizimida bir vaqtning o‘zida Islom teologiyasiga hamda Sharq peripatetiklarining falsafiy dunyoqarashiga qarshi turilgan. Mazkur qarashlar mutafakkirlar ajdodlarimiz al-Kindiy, al-Forobi, Ibn Sino, Ibn Rushd kabilarning asarlarida ilgari surilgan. Ko‘rinib turibdiki sog‘lom diniy dunyoqarash doirasida tasavvufning teologik shakli alohida ahamiyat kasb etgan.

Sog‘lom diniy dunyoqarash nuqtai nazaridan yondashganda tasavvufdagi fano va baqo so‘zları insoniy sifatlarga nisbatan qo‘llanilganligini talabalar ongiga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Ushbu so‘zлarni mazmun mohiyatini ma’naviy axloqiy nuqtai nazardan yondashgan holda talqin etish jamiyatdagi buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi murosasiz kurashish imkonini beradi va yoshlarda salbiy harakaterdagi o‘tkinchi sifatlarga barham berib, ma’naviy yuksalish uchun imkoniyat yaratadigan umrboqiy sifatlarni egallahga da’vat etishga ko‘maklashadi.

Tasavvufiy dunyoqarash IX-asrda Ma’mun hukmronligi davrida yangi bosqichga ko‘tarilgan. X-asrgacha kelib sog‘lom diniy dunyoqarashning asosini iroda erkinligi haqidagi g‘oyalalar teologik falsafa taraqqiyotiga munosib xissa bo‘lib qo‘sildi. Mazkur ta’limotning yirik namoyondalardan biri Mahmud az-Zamaxshariy edi.

IX-asrning oxiri X-asrning boshlariga kelib, teologiyaning yangi ortodoksal yondashuvga asoslangan izchil tizimli dunyoqarash vujudga keldi. Bu davrga kelib ontologik masalar teologik maqsadlarga bo‘ysundirilgan. Ular aql va aqliy mushohadaga ham e’tibor qaratib, o‘z fikrlarini asoslashda aqliy-mantiqiy usullardan

foydalanganlar. Kalom ilmining rivojlanishi barobarida fiqh va Hadis ilmi rivojlandi. Natijada islomiy dunyoqrash negizida madaniy dunyoqarash vujudga keldi. Shu tariqa Motrudiyning kalom ilmi va ilohiyot nazariyasi vujudga keldi va diniy dunyoqarash sifatida ommalashdi.

XI-XII-asrlar tasavvuf differensiatsiyalashib, Xuroson tasavvuf ta'limotining markaziga aylandi. Diniy dunyoqarash tasavvufning yangi oqimlari hisobiga kengaydi. Mazkur dunyoqarash tarkibida Alloh, ruh, inson to‘g‘risidagi ta’limotlarning teologik shakli bilan bir qatorda tabiat, inson, jamiyat munosabatlariga oid qarashlarni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Bularning barchasi sog‘lom diniy dunyoqarash tarkibida hurfikrlilikka asoslangan yondashuvning vujudga kelishi va rivojlanishiga asos bo‘ldi.

Tasavvuf olamining yirik namoyondasi Abu Hamid Imom G‘azzoliy falsafa, islom tarixi, huquq, axloq, tasavvuf, kalom ilmi, she’riyat, tabobat, odob, ma’rifat, haqiqatga oid ko‘plab ilmiy asarlar yozgan. Uning asarlarida teologik qarashlar bilan falsafiy qarashlar uyg‘unlashgan. Aksariyat o‘rinlarda diniy falsafiy qarashlar ustuvor o‘rin egallagan. G‘azzoliy ilgari surgan falsafiy tizim tasavvuf monoteizmining falsafiy-teologik ifodalanishi bo‘lib, uni mutafakkir ortodoksal islom bilan birlashtirishga muvaffq bo‘lgan. G‘azzoliy o‘zining g‘oyalari bilan sog‘lom diniy dunyoqarashni rivojlantirgan. U so‘fiylarni mistik-asketik qarashlarini «ruhning poklanishi» «ma’naviy hayot»ga tayyorgarlik vositasi [5, 182-b]sifatida talqin qilgan. Shuning uchun G‘azzoliy ilgari surgan g‘oyalari talabalarning sog‘lom diniy dunyoqarashni rivojlantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Tasavvufning sog‘lom diniy-ma’naviy ta’limot sifatida rivojlanishida G‘azzoliyning xizmatlari beqiyos hisoblanadi. G‘azzoliy tomonidan ilgari surilgan mo‘htadil tasavvuf islomiy dunyoqarashni rivojlantirdi. Natijada islom dini so‘fiyona g‘oyalari asosida boyitildi. G‘azzoliy diniy ongning mohiyatini anglashida hal qiluvchi tushuncha iymon e’tiqod ekanligini e’tirof etgan. G‘azzoliy ilm orqali o‘z “men”ini poklash g‘oyasini lgari surgan. G‘azzoliyning buyuk xizmati shundaki, u teologiyani dunyoqarash darajasiga ko‘targan.

G‘azzoliy ma’rifat bilan tasavvuf ta’limotining o‘ziga xosligini aniqlashga harakat qilgan. Ularni ilm va amal deb ta’riflagan. Natijada tasavvuf islomiy dunyoqarash tarkibiga kirdi. Bunda Imom G‘azzoliyning xizmati katta bo‘ldi. G‘azzoliy birinchilardan bo‘lib dinga ko‘r-ko‘rona e’tiqodni qoralagan. G‘azzoliy bilish va iroda Allohning abadiy hususiyati bo‘lib, nafaqat umumiylidkan balki xususiylikdan ham iboratligini ta’kidlagan. G‘azzoliy o‘z qarashlarini o‘zining ilohiyot tizimini ma’naviy faoliyat bilan uyg‘unlashtirgan.

Tasavvuf ta’limoti ilg‘or namoyondalari qalb va ruhning yuksalishi, ya’ni ma’naviy yuksalish uchun kurashganlar. Bu haqida Jaloliddin Rumiy “Ichingdag‘i ichingdadir” quydagicha yozgan edi: “Dengizga borib, undan faqatgina bir ko‘za suv olmoq bilan qanoatlanish – achinarli. Dengizdan olish mumkin bo‘lgan dur-javohirlar va boshqa qanchadan-qancha narsalar bo‘la turib, birgina suv olishning nima qiymati bor? Aqli insonlar bu bilan qanday qilib maqtanadilar va nima degan odam bo‘ladilar? Olam – bir ko‘pik. Avliyolar bilimlari – dengiz. Bu olam has-xashak bilan to‘lgan ko‘pikdir, faqat bu ko‘pik dengizning chayqalishidan, o‘ynoqlashidan va ko‘pirib qaynashidan poklanadi, soflanadi, go‘zallahadi” [6, 17-b]. Bu fikrning mohiyati shundaki, insonlar, shu jumladan yoshlar har doim o‘tkinchi hoyu-havaslardan voz

kechib, boqiylikka dahldor qiluvchi ezgu amallarni egallashlari kerak. Rumiyning “Masnaviy ma’naviy” asarida masnaviy yo‘li insonni kamolotga yetaklovchi o‘ziga xos ilm yo‘li ekanligini e’tirof etadi. Chunki ushbu asarda sog‘lom diniy dunyoqarashning barcha elementlari o‘z ifodasini topgan. Bu xususda Rumiyning o’zi shunday deydi: “Bu kitob Masnaviy kitobidir. Bu Alloh taolonning buyuk fiqhi va oydin shariatidir”[7, 15-b].

Ezgulikka intilish, tasavvufiy dunyoqarashning asosiy g‘oyasi hisoblanadi. Mazkur dunyoqarashda tabiiy, ruhiy, ma’naviy qarashlar o‘zaro uyg‘unlashgan tarzda namoyon bo‘ladi. Chunki sog‘lom diniy dunyoqarashning asosini tashkil etgan ilohiy nur konsepsiyasida komil inson tarbiyasi, shaxsning o‘z o‘zini anglashi, halollik, poklik, ilm egallahga intilishi, qiyinchiliklarga bardosh berishi, nafshi tiyishi, halol rizq topishga intilishi yetakchi o‘rin egallagan. Sog‘lom diniy dunyoqarash targ‘ibotchilar panteizm moddiylik materiyani mavjudligini e’tirof etganlar. Panteizm bu tarixan shakllangan diniy va falsafiy ta’limot. Xudo bilan tabiat bir-biriga tamoman mos bo‘lib tushadi, ular aynan birdir, ularni bir-biriga qarama qarshi qo‘yish falsafiy tafakkur rivojiga putur yetkazadi deb hisoblaydi. Panteizm atamasini ingliz faylasufi J.Toland kiritgan [8, 268-b]. Bu tushuncha Sharqda vujudiyun nomi bilan ataladi. Turli tarixiy davrlarda Panteizm mohiyatan farq qiladigan falsafiy tizimlar xilma-xil fikr mulohazalarini o‘zida aks ettirib keldi. Bunday yondashuv sirasiga Aziziddin Nasafiyini qarashlarini kiritish mumkin. Tasavvuf ta’limoti namoyondalari nurni qalb ko‘zi bilan ko‘rishni ta’kidlaydilar. Bu o‘rinda nur ezgulik sifatida talqin etiladi.

Tasavvuf ta’limotida taqdir, ya’ni qadarga alohida e’tibor qaratilgan. Ular amalga oshiriladigan barcha ishlar, harakatlar, vujudga keladigan voqealar taqdir taqozosi ekanligini ta’kidlaydilar. Aziziddin Nasafiy ham Inb Arabiyning ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini munosib tarzda davom ettirgan va yosh avlod tarbiyasiga oid yangi g‘oyalar bilan boyitgan. Jumladan, Aziziddin Nasafiy «Zubdat-ul-haqoyiq» («Haqiqatlar qaymog‘i») asarida shunday deydi: “Bilginki, jon tanadan ajralgandan keyin agar u komillikka erishgan bo‘lsa, uruj - (asliga qaytib) asil aqlar huzuriga qaytadi va g‘ayb olami joni bilan qo‘shiladi. Chunki inson joni(ruhi)ning kamoloti aqlar va falaklar olami joni(ruhi) bilan vobastadir, zero falaklar olamining barcha jonlari va aqlari ma’rifat va safo sohibidirlar va doimiy ravishda ma’rifat egallab nurafshonlik kasb etadirlar. Shu bois insonning vazifasi – uzlusiz ma’rifatga intilish va nur bilan to‘ldirish va ilm topib, musaffolik sari intilishdir [9, 185-b]. Shu bilan bir qatorda Nasafiyning asarlarida muhim dunyoviy, ilmiy-amaliy yondashuvlar ilgari surilgan. Nasafiyning ta’biricha insonlar bir-birining taqdiriga ta’sir ko‘rsatadi va uni o‘zgartiradi. Biroq qadarni qadar bo‘yicha o‘zgartirish mumkinligi haqidagi g‘oyani ilgari surgan. Sog‘lom diniy dunyoqarashda yondashuvlar shariat, hikmat, vahdat ahlida olinib uyg‘unlashtirilgan. Ushbu dunyoqarash insonni jism va ruhdan iborat mavjudot sifatida talqin etgan. Mazkur yondashuvlar uning “Zubdatul-haqoyiq” asarida keng ko‘lamda talqin etilgan. Nasafiy ilgari surgan sog‘lom diniy dunyoqarashning asosini makro kosmosolamikubro (katta) va mikrokosmosolamisug‘ro (kichik) haqidagi so‘fiyona ta’limot tashkil qilgan. Ushbu ta’limotga ko‘ra odam va olam o‘zaro o‘xhash bo‘lgan, yaqin aloqadorlikka ega bir butun hodisa sifatida talqin etilgan. Chunki olamni bilish Nasafiyning ta’biricha o‘zini anglash demakdir.

Ko‘rinib turibdiki tasavvuf ta’limotining asosini barkamol shaxs axloqiga oid sog‘lom diniy dunyoqarashi tashkil etadi.

Tasavvuf ta’limoti namoyondalarining qarashlari rang barang bo‘lib, inson uning mohiyati va komoloti haqidagi fikrlar majmuidan iborat. Unda Qur’oni Karim, kalom ilmida ilgari surilgan axloqiy qarashlar mujassamlashgan. Shuning uchun ham insonparvarlik, adolatlilik, tenglik, hayru sahovatning inson uchun zarurligi haqida ta’lim beradi. Tasavvufda insonga g‘amho‘rlik qilish, uning ma’naviy kamolotini ta’minlash ustuvor maqsad hisoblanadi. Insonning ma’naviy kamolini ta’minlash masalasi tariqat namoyondalarining diqqat markazida bo‘lgan. Insonning ichki olami, ruh va jism orasidagi munosabatlar ishonchli dalillar yordamida ohib berilgan. Inson yovuzlikdan uzoqlashib, ezgulikka intilishi lozimligi tasavvuf ta’limotida yetakchi o‘rin egallagan g‘oyalardan biri hisoblanadi. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra insonni axloqini isloh qilish uchun uning tabiatini poklash, yomon o‘y hayollardan ozod qilish lozimligi ta’kidlangan.

Tasavvuf ta’limoti namoyondalari shaxs tabiatidagi yomonlik, fe’l atvoridagi yovuzlik, beqarorlikni “nafsi ammora” tushunchasi orqali ifodalaganlar. Inson yomon fe’li tufayli molu dunyo to‘plash, nafsga berilishiga moyilligini tasavvuf ta’limoti namoyondalari o‘z asarlarida qayta qayta ta’kidlaganlar.

Tasavvuf ta’limoti namoyondalari nafsni ajdahoga tenglashtirganlar. Nafs yoshlarni hudbinlikka yetaklab, ularning dunyoqarashini salbiy illatlar bilan to‘ldiradi. Nafs domiga tushgan insonlar xarom va harishni farqlamaydilar. Natijada bunday kishilar zulmkor, berahm bo‘lib, jamiyat va davlat ravnaqiga zyon yetkazadi. Jamiyatni ma’naviy iqtisodiy tanazzulga yuz tutishiga sababchi bo‘ladi. Shuning uchun ham talaba yoshlarni tasavvuf ta’limoti namoyondalari targ‘ib qilgan yomonlikdan tiyilish, sabr bardoshli bo‘lish kabi sifatlar bilan qurollantirish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Chunki nafs tarbiyasi bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lib, nafs aksariyat yoshlarni o‘z domiga tortmoqda. Korrupsiyani rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Ommaviy madaniyat targ‘ibotchilari talaba yoshlar ongiga dunyoga bir marta kelasan olib qol yoki sen insonsan senga hamma narsa mumkin, yaxshi yashashga haqqing bor degan g‘oyani talaba yoshlar ongiga yetkazib ularda meshchanlik kayfiyatini hosil qilayotgan bir vaqtda tasavvuf ta’limotidagi nafs tarbiyasi yanada ko‘proq pedagogik ahamiyat kasb etmoqda. Chunki tasavvuf yoshlarda mol dunyo to‘plash uchun harakat qilishni emas balki ilm egallah ezgu amallarni bajarishga da’vat etishni targ‘ib qiladi. Nafsning yomonligini anglash natijasida talaba yoshlar insonning o‘zini, ya’ni ilohiylik va ezgulikni mohiyatini anglab yetishga muvaffaq bo‘ladilar. Jumladan Bahouddin Naqshbandiy nafsni yomonligini anglash natijasida inson o‘z o‘zini anglashga muvaffaq bo‘lishini ta’kidlagan.

Tasavvuf ta’limoti namoyondalari zo‘ravonlik, zulmkorlik, molparastlikni tanqid ositiga olganlar. Tasavvuf adabiyotida adolatli podsho timsoli yaqqol gavdalantirilgan. Adolatli hukmdorlarga xos bo‘lgan sog‘lom diniy dunyoqarash qo‘llab quvvatlangan. Ushbu ta’limotda sabrli bo‘lish, oz narsaga qanoat qilishni ham insonga hos eng fazilat sifatida e’tirof etilgan. Shuningdek ular mehnat bilan topilgan rizqning halolligini qayta qayta ta’kidlaganlar va o‘zlari ham tasavvuf shayxlari bo‘lib muayyan kasb hunar bilan doimiy shug‘ullanganlar. Ular har bir inson

o‘z luqmasining halolligini ta’minlashi lozimligini uqtirganlar, har qanday sharoitda ular ta’magirlikdan uzoq bo‘lishni, undan saqlanish lozimligini ta’kidlaganlar. Tasavvuf ta’limoti namoyondalarining ushbu fikrlari talabalarni sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni halollik, ta’madan xoli bo‘lish, mehnatsevarlikka undash uchun zarur didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Sog‘lom diniy dunyoqarashda nur va nurga intilish masalasi yetakchi o‘rin egallagan. Chunki nur aqlning birlamchi mabai hisoblanadi. Zulmat timsolida esa yo‘qlik keljakdan mahrumlik g‘oyasi ifodalangan. Hur fikrlilik, mukamallik, ozodlik g‘oyalari esa ezgu amallarni bajargan insonlarga xosdir degan sog‘lom diniy dunyoqarash mavjud. Bunday insonlarning dahosi avlodan-avlodga o‘tib, millat va jamiyat ma’naviyatini yuksaltiradi, dunyo tamadduniga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi. Bunday nurli g‘oyalarni egallahsga talabalarni da’vat etish ta’lim tizimining muhim vazifalari sirasiga kiradi.

Mutafakkir ajdodlarimizning ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari alohida qimmatga ega. Shu bilan bir qatorda ular tabiatni ilohiy tarzda aks ettirishga harakat qilganlar. Ajdodlarimizning sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirishga oid qarashlarida insonni tarbiyalash, ularni yoshlikdan boshlab ezgulik bilan tanishtirish, ezgu amallarni o‘rgatish zarurligini ta’kidlaganlar. Jumladan Nasafiy “Komil inson” kitobi to’rtinchisini fasl suhbat bayonida quyidagi fikrlarni ta’kidlagan: “Bilgilki, suhbat kuchli ta’sir va azim xosiyatlarga ega. Maqsadga yetmagan solik murodiga yetmaydi, chunki u dono odamlar suhbatiga erishmagandir. Dononing suhbat – qudratli kuchga ega, u yurakka yetib boradi va mohiyatlarni anglashga ko‘maklashadi. Kimki (tariqat yo‘lida) biror narsaga ega bo‘lgan bo‘lsa, bu donolar suhbat tufaylidir. Qolgan barcha usullar vositadir, xolos. Riyozat va harakat, jahdu jadallar ko‘p. Ammo barcha riyozatlar, odobu sharoitlar dono suhbatiga yetishni, (shunga tayyorgarlik)dir, xolos. Soliq dono suhbatiga munosib bo‘lsa, uning ishi nihoyasiga yetgan, ya’ni tariqatni oxiriga yetkazgan bo‘ladi” [10, 8-b]. Mazkur o‘rinda mutafakkirning inson aql-idroki, Alloh tomonidan ato etilgan ne’mat bo‘lib, u shaxsning muntazam takomillashuvi, olamni bilish, o‘rgana olish, o‘z istiqbolini ko‘ra olish, yaqinlarini sevish, ularning kechinmalarini his qilishi zarurligi haqida fikr yuritganlar. Mazkur fikrlar bugungi kunda talabalarda sog‘lom diniy dunyoqarashni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularda shaxsiy-kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki insonni sevish, uni qadrlash bo‘lajak pedagoglar uchun muhim sifatlardan biri hisoblanadi. Mutafakkir ajdodlarimizning so‘fiyona falsafasida ilohiyat ta’limoti asosiy o‘rin egallaydi. Bu bugungi kunda talaba-yoshlarda shakllantirilgan sog‘lom diniy dunyoqarashning asosini tashkil etadi. Chunki teologik qarashlar odam, olam va Allohnинг birligi haqidagi ta’limotga asoslanadi. Inson aql-zakovati haqidagi ratsionalistik yondashuvlar olamni bilish haqidagi dunyoqarash bilan mujassamlashgan.

Ajdodlarimiz pedagogik ta’limotida ilgari surilgan tarbiyaga oid g‘oyalarning asosini tasavvufiy dunyoqarash tashkil etadi. Ular insonni tarbiyalash uni ezgu g‘oyalarni hamda munavvarlikka yoshlikdan boshlab oshno qilish, halol kasb-hunar bilan umr kechirishga targ‘ib etish, tabiat in’omlari va Allohnинг ne’matlarini avaylab asrashga

o‘rgatish zarurligini qayta qayta ta’kidlaganlar. Ushbu fiklar bugungi kunda tarbiya tizimini rivojlantirish uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lib o‘quvchi hamda talaba-yoshlarda o‘z-o‘zini anglash, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo‘lish o‘z oilasi yashab turgan xonadoni, vatan ichra kichik vatan ekanligini his etish ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. - T.: «Movarounnahr», 2009. - 448 b.
2. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat(Yangi topilgan namunalar). Nashrga tayyorlovchi: Nodirxon Hasan. "Movarounnahr" Toshkent -2004. – 83 b.
3. Boltayev A.A. Ibn Arabiyning “Risolai vujudiya” (“Borliq to‘g‘risida risola”) asari borliq yagonaligi to‘g‘risidagi asar. O‘zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari, 2-(2023). 77–80. Izvlechenoot <https://www.research.uz/index.php/uzresearch/article/view/270>
4. Boltayev A.A. Muhyiddin ibn arabiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro.:2023. – 73 b.
5. Po‘latovH., M.Mamatov. Tasavvuf tarixidan lavhalar. Mas’ul muharrir Komilov N. –Toshkent:. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011. - 320 b.
6. Mavlono Jaloliddin Rumi. Ichingdagi ichingdadir: Falsafiy asar//Mas’-ul muharrir N. Komil. Toshkent.: Yozuvchi, 1997 y. – 191 b.
7. Mavlono Rumi Jaloliddin. Ma’naviyi masnaviy. Birinchi kitob. Fors tilidan Jamol Kamol tarjimasi. Noshkent.: 2005. – 392 b.
8. Champion Justin. John Toland: The politics of pantheism. Article in Revue de Synthese. London, April 1995. – p 780.
9. Aziziddin Nasafiy. Zubdatul-haqoyiq. N.Komilov tarjimasi. – Toshkent.: 2003. ”Kamalak”, - 289 b.
10. Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi. VI risola. – T., “Sharq”. – 122 b.